

O'ZBEK OILALARIDA REPRODUKTIV FUNKSIYANING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mamatova Nafisaxon Ro'ziboyevna

ADU Umumiy psixologiya kafedrasи doktoranti

mnafisaxon@inbox.ru

Tel: +998914868733

SPECIFIC SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF REPRODUCTIVE FUNCTION IN UZBEK FAMILIES

Abstract

The article covers in detail the socio - psychological foundations of reproductive function in families, the determination of the attitudes of young people towards age-old values such as marriage and family on the basis of scientific research, their psychological laying.

Key words: the population, young people, reproductive behavior, reproductive culture, birth, mortality, family, marriage, promelle, depopulation.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕПРОДУКТИВНОЙ ФУНКЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

O'ZBEK OILALARIDA REPRODUKTIV FUNKSIYANING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya

Maqolada oilalarda reproduktiv funksiyaning ijtimoiy- psixologik asoslari, yoshlarning nikoh va oila kabi azaliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarini ilmiy tadqiqot asosida aniqlash, ularning psixologik taxlili haqida atroficha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Aholi, yoshtar, reproduktiv hulq-atvor, reproduktiv madaniyat, yoshtar siyosati, tug'ilish, o'lim, oila, nikoh, promelli, depopulyatsiya.

Respublikamizda so'ngi yillarda olib borilayotgan qator yoshtar ta'lim-tarbiyasiga oid islohotlar tufayli, yurtimiz kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega, sog'lom e'tiqod va tafakkur qilishga qodir bo'lgan yoschlarni tarbiyalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022 – 2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan “Reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish”, “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”¹ oid belgilangan vazifalar asosida Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamenti yanada kengaytirish”² to'g'risidagi 08.11.2019-yildagi qarorlari demografik jarayonni qo'llab quvvatlovchi zaruriy asos bo'la oladi.

Ma'lumki, har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati uning demografik rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Mamlakatning demografik vaziyati va asosiy tendentsiyalari, xususan, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichidagi o'zgarishlar va istiqbolda kutiladigan holatlar, nikoh jarayonlari va oilaviy ajrimlar, aholining migratsion harakati, aholi o'sishi mamlakatdagi ijtimoiy tizimlarga ta'sir qiladi. Bu esa demografik jarayonlarning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sirini belgilab beradi. Buni inobatga olib, mamlakatda demografik ko'rsatkichlarning mavjud dinamikalari va ular asosida prognozlarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish mamlakatning kelgusida yuqori iqtisodiy o'sishiga erishishida ichki imkoniyat va zahiralarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish yo'nalishlarini ishlab

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 –2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 60-70 maqsad <https://lex.uz/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 06/20/6110/1512-son <https://lex.uz/ru/docs/17.03.2021>.


chiqish imkonini beradi. BMT Aholishunoslik jamg‘armasi, Yunisef va boshqa tashkilotlar hisobotlarida mamlakatlarning demografik vaziyati va asosiy tendentsiyalari, xususan, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichidagi o‘zgarishlar va istiqbolda kutiladigan holatlar, nikoh jarayonlari va oilaviy ajrimlar, aholining migrations harakati, aholi o‘sishi, demografik jarayonlarga izoh, ta’rif hamda tadqiq etish usullari yoritilgan. Demograflar uchta asosiy demografik jarayonni: tug‘ilish, migratsiya va qarish (shu jumladan o‘lim) ni o‘rganish orqali aholi dinamikasini tushunishga intiladi. Bu uchala jarayon ham aholining o‘zgarishiga, jumladan, odamlarning yer yuzida qanday yashashi, millatlar va jamiyatlarni shakllantirishi va madaniyatni rivojlanтирishga yordam beradi. Demografik jarayonda tarix, iqtisod, antropologiya, sotsiologiya va boshqa sohalardagi usullardan foydalanadi. Aholini ro‘yxatga olish kabi asosiy demografik tadqiqotlar qadimgi dunyoda 6000 yil oldin amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar mintaqaga aholisining birinchi statistik so‘rovlaridan biri bo‘lib hisoblangan. Bunga Demografik institutlar CICRED tarmog‘ining bir qismi bo‘lgan (demografik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha xalqaro qo‘mita), demografik tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan ko‘plab olimlar xalqaro Aholishunoslik ilmiy uyushmasi yoki Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Amerika demografik assotsiatsiyasi yoki Kanada demograflari federatsiyasining Kanadadagi filiallarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Madaniyat inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi va ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p muhokama qilinadigan hodisalarga tegishli. Hozirgi vaqtda juda ko‘p g‘arb mamlakatlarida depopulyatsiya kuzatilmoqda. Jamiyatimizning demografik beqarorligini bartaraf etish uchun qabul qilingan qadamlarning samaradorligini anglash zarurati psixologiya fani uchun keng muammoli maydonni yaratadi, u inson asrining reproduktiv madaniyati, uning o‘tmishi va buguni, eng muhimi, kelajakdagi rivojlanishi to‘g‘risida chuqurroq bilimlarni amaliyotga tatbiq eta oladi. Shuning uchun xam yoshlarning reproduktiv xulq-atvorini, ularning oila va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘rganish muxim va dolzarb masalalardan sanaladi. Oila jamiyatning eng asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, reproduktiv, iqtisodiy va psixologik funksiyalarni bajaradi. Oilaning reproduktiv funktsiyasi va uning bajarilishi deyilganda, aholi sonining qayta tiklanish uchun har bir oilada nechtadan farzand bo‘lishi lozimligi nazarda tutiladi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo‘ladigan bo‘lsa bo‘lsa, bunday xalq sakkizinch avloddan keyin yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Demograflarning ta‘kidlashlaricha, oila o‘zining reproduktiv fuktsiyasini bajarishi uchun xar bir oilaga o‘rtacha 2,6 farzand to‘g‘ri kelishi kerak. Aynan oila yosh avlod o‘sib, ulg‘ayib, ijtimoiy maqomga ega bo‘lishi



uchun asos yaratib beradigan makon xisoblanadi. Ota-onalar xayotining xar bir jabxasida to‘planadigan tajribasi aynan shu makonda farzandlarga o‘tadi. Oila aholini faqat biologik jixatdan barpo bo‘lishidagina emas, jamiyatning xar bir a’zosining ma’naviy va axloqiy jixatdan xam kamolotga erishishida bosh rol o‘ynaydi, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Respublikada o‘tkazilgan ko‘plab ijtimoiy tadqiqotlarning natijalari mamlakat aholisi oilaga xar bir inson xayotining eng asosiy qadriyati sifatida qarashini ko‘rsatadi. Shuning uchun xam bu yerda oila-nikox munosabatlari mustaxkam bo‘lib, bu xususiyati bilan respublikamiz boshqa davlatlardan farq qiladi. Rus sotsiologi A.Antonovning ta’kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta`sirlarini ko‘rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi. O‘zbekistonda oxirgi 10 yillikda quyidagi tug‘ilish ko‘rsatkichi qayd etildi.

AXOLI SONINING YILLAR KESIMIDA O’SISHI



Bu statistik ma’lumotlardan O‘zbekistonda axolining takror barpo bo‘lishi o‘zbek genofondini saqlab qolishiga asos bo‘lishini isbotlaydi. Xulosa o‘rnida aytish joizki, davlatning demografik siyosati uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunda, demografik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va prognozlarini ishlab chiqish mamlakat rivojlanishining ichki imkoniyat va zahiralarini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 –2026 yillarga mo’ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni. 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 60-70 maqsad <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 06/20/6110/1512-son <https://lex.uz/ru/docs/17.03.2021>
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari.
4. X.X.Abduramanov. Demografik salohiyatning shakllanish omillari va uni baholash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil.
4. O‘zbekistonda asosiy demografik ko‘rsatkichlar: Mavjud dinamikalar va kutilayotgan o‘zgarishlar SH. Zokirov. Scientific progress. Volume 2 | Issue 7 | 2021

